QORAXONIYLAR DAVLATINING ELCHILIK A'LOQALARI

Toshtemirova Sevinch Jasur qizi –QarDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraxoniylar davlatining qo‘shni davlatlar bilan olib borgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari tahlil qilinadi. Jumladan, G‘aznaviylar davlati, Saljuqiylar imperiyasi, Xorazmshohlar davlati hamda Xitoy bilan bo‘lgan munosabatlarning tarixiy ahamiyati yoritiladi. Qoraxoniylarning Buyuk Ipak yo‘lidagi o‘rni va Markaziy Osiyo taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Qoraxoniylar, tashqi siyosat, G‘aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Buyuk Ipak yo‘li, Movarounnahr, diplomatik aloqalar, savdo munosabatlari, Markaziy Osiyo.

Abstract: This article analyzes the political, economic, and cultural relations of the Qarakhanid State with neighboring countries. In particular, it highlights the historical significance of its relations with the Ghaznavid State, the Seljuk Empire, the Khwarazmshah State, and China. The article also reveals the role of the Qarakhanids in the Great Silk Road and their contribution to the development of Central Asia.

Keywords: Qarakhanids, foreign policy, Ghaznavids, Seljuks, Khwarazmshahs, Great Silk Road, Mawarannahr, diplomatic relations, trade relations, Central Asia.

Аннотация: В данной статье анализируются политические, экономические и культурные связи государства Караханидов с соседними государствами. В частности, освещается историческое значение отношений с государством Газневидов, империей Сельджуков, государством Хорезмшахов, а также с Китаем. Раскрывается роль Караханидов на Великом шелковом пути и их вклад в развитие Центральной Азии.

Ключевые слова: Караханиды, внешняя политика, Газневиды,

Сельджуки, Хорезмшахи, Великий шелковый путь, Мавераннахр, дипломатические связи, торговые отношения, Центральная Азия.

X asr oxiri XI asr boshlariga kelib hozirgi O‘zbekiston hududida bir qancha kuchli sulolalar hokimiyat tepasiga kelgan va davlatni markazlashtirishda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy rivojlanib borishga erishgan. Natijada ro‘y bergan migratsion jarayonlar tarixda katta iz qoldirdi. Davlat boshqaruvi, xususan, tashqi aloqalarning rivojlanishida mahalliy o‘troq va ko‘chmanchi an’analar katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Qolaversa, qoraxoniylar sulolasining (940–1212) hokimiyat tepasiga chiqishi bilan turkiy an’analarning ham o‘rni kuchayib borgan. Ulardan keyin tarix sahnasiga chiqqan qoraxoniylar, g‘aznaviylar (961–1180), saljuqiylar (1036–1157) va anushteginiylar (1097–1231) ham ko‘p davlatlar bilan keng miqyosda diplomatik munosabatlarni olib borganlar.

Qoraxoniylar davlati mintaqa xalqlari ma’lum o‘rin tutadi. Jumladan, o‘rta asr tarixchisi ibn Xallikonning ma’lumot berishicha, X asrning o‘rtalaridayoq, Qashqar va Bolasog‘undan Xitoy chegaralari va Buxoroni olib qo‘ygan, biroq o‘sha qaytayotganda kasal bo‘lib vafot etgan. “Qoraxoniylar” atamasi ushbu sulolaga XIX asrda yevropalik tadqiqotchilar tomonidan berilgan. Arab tilidagi yozma manbalarda bu sulola nomi “al-xoqoniya” tarzida ifodalansa, fors tilidagi manbalarda u “Ili Afrosiyob” (Afrosiyob oilasi) shaklida keladi.1

X asr oxirlariga kelib Movarounnahrda qoraxoniylar davlatining siyosiy ta’siri ancha kuchayadi. Qoraxoniylar siyosiy tizimining qaror topishiga bir tomondan somoniylar, ikkinchi tomondan, qoraxoniylar jamiyatida ustun bo‘lgan turkiy an’analar katta ta’sir ko‘rsatgan. Turkiylarda avval mavjud bo‘lgan mansablar va ma’muriy atamalarning ayrimlari somoniylar davrida qo‘llanilgan arabcha va forscha variantlar bilan almashgan. Xoqonning asosiy xojibi “hojib” deb atalgan, u kuchli insoniy fazilatlarga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan. Qoraxoniylar viloyatlari “el” yoki “viloyat” deb atalib, mahalliy bek yoki tarxonlar tomonidan boshqarilgan.

1 Хўжаев А., Турдиева Д. Қорахонйлар хоқонлиги тарихи: Хитой Халқ Республикаси олимлари тадқиқотларида. – Т.: “Фан зиёси”, 2021. – Б.71.

Shaharlar esa raislar tomonidan boshqarilgan. Qoraxoniylar davlati dastlab Sharqiy Turkiston va Yettisuvda tashkil topgan bo‘lib, 999-yili Bug‘roxon Horun Buxoroni bosib oladi va 999–1005-yillarda uning merosxo'ri Nasr I butun Movarounnahr hukmdoriga aylanadi. Qoraxoniylarning siyosiy tarixi va bu sulolaning etnik kelib chiqishi haqida bugungi kungacha bir qator fikrlar bildirilgan. Mahmud Qoshg'ariyning ma'lumot berishicha, qoraxoniylarning markaziy shaharlari Barsgan yaqinidagi Quyos shahrida, Taroz yaqinidagi bir shaharchada chigil qabilalari yashaganlar. Ular arg'ularga qo'shni bo'lganlar (20, 375). O'g'uzlar chigillarga o'xshash barcha qabilalarni "chigil" deb ataganlar. Arab mualliflari qarluq ittifoqidagi qabilalarni ba'zan xazlaj va boshqa qabilalar nomi bilan atashgan. Ularning bunday nomlanishlariga sabab, mahalliy qabilalar qarluq ittifoqidagi barcha qabilalarni yagona bir etnik birlik sifatida tushunganliklaridan bo'lsa kerak. Aftidan, qarluq ittifoqidagi barcha qabilalarni qo'shni elatlar o'zlariga eng yaqin qabila nomi bilan atagan bo'lishlari mumkin. Masalan, o'g'uzlarga ko'proq chigillar yaqin bo'lganliklari sababli barcha qarluq ittifoqidagilarni va qarluqlarga o'xshaganlarni chigil deb ataganlar.[2]

Al-Utbiyning ma'lumotiga ko'ra, oxirgi Somoniy hukmdori Mustansir qoraxoniylarga qarshi kurashda mag'lubiyatga uchrab, Buxoro yaqinidagi g'uzlar manziliga qochib borgan va ulardan yordam so'ragan. G'uzlar o'tmishda somoniylar xonadonidan ko'p yaxshiliklar ko'rganliklarini eslab, unga yordam berishga qaror qilganlar. G'uzlar bilan birga qoraxoniylar qo'shini ustidan g'alabaga erishgan, ammo g'uzlar asirlarni Mustansirga bermaganlar va Mustansir g'uzlarning Ilekxonga asirlarni qaytarib, uning marhamatiga erishmoqchiliklarini bilib qolgach, Mustansir masalada bir-birlari bilan tortishayotganliklarini bilib qolgach, ularni mustaqil tark etishga qaror qilgan. O'z mavqeini biroz mustahkamlab olib, Ilekxon qo'shinlari bilan bir necha kichik janglar qilgan. G'aznaviylar sulolasidan bo'lgan Sultan Mas'ud G'aznaviy taxtga chiqqanidan so'ng 1031-yilda Qoraxoniylar saroyiga o'zining taxt

2 Асқаров А., Мақсудов Ф.А., Пидаев Ш.Р. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. VIII-қисм. –Т.: “Маънавият”, 2023. –Б.161 162.

sohibi ekanligini ma'lum qilish va ular bilan yaqin qarindoshlik munosabatlarini o'rnatish maqsadida o'z elchilarini jo'natgan. G'aznaviylarning buyuk mavqeyidan norozi bo'lgan qoraxoniylar hukmdori Yusuf Qodir Qashqarda bu elchilikni yaxshi qarshi olmagan. Oradan bir yil o'tib Yusuf Qodirxon o'lgan va u Qashqarda xoqonlar daxmasiga dafn etilgan [21,49]. Undan keyin taxt uning o'g'illari Sulaymon Arslonxon va Muhammad Bug'roxonlar qo'liga o'tadi. Ularning hukmronlik davrida g'aznaviylar bilan orada hal qilinmay kelinayotgan bir qator muammolar yechimini topgan va ikki tomonlama munosabatlarda biroz iliqlik yuzaga kelgan. Biroq, shundan keyin sodir bo'lgan ayrim siyosiy voqealar natijasida qoraxoniylar davlati G'arbiy va Sharqiy qoraxoniylar kabi ikki davlatga ajralib ketgan.[3]

Qoraxoniylar davlati ikkiga ajralganidan keyin Muhammad bin Nasr G'arbda markazi O'zgan bo'lgan yerda va Samarqandda Ibrohim bin Nasr Movarounnahr ustidan hukmronlik qildi. Muhammadning o'limidan keyin esa u davlatning yagona hukmdoriga aylandi. U O'zganga ketmadi, balki davlat markazini Samarqandga ko'chirdi. U qoraxoniy hukmdorlari ichida eng mashhurlaridan biri hisoblanadi. O'rta asr mualliflari uning davlatida tinchlik va osudalik, narxlar barqarorligi ta'minlanib, xalq rohat va farog'atda hayot kechirganligi to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirganlar.

Turk olimi R.Genching fikricha, qoraxoniylarning hukmdorlari rasmiy hayotida boshqa yurtlardan kelgan elchilarni qabul qilish ishlari asosiy o'rinda turgan [21, 157]. Hukmdorning boshqalar bilan aloqalari, asosan, hojib lavozimi egasi vositasida amalga oshirilgan. Hojibning yana bir asosiy vazifasi bo'lib, u xorijlik elchilarning kelib-ketishi, qabul etilishi, belgilangan ehson, nafaqa va boshqa narsalar bilan ta'minlanishi, yeb-ichish masalalarini nazorat qilgan. Elchilarning ishi natijasiga qarab, ularga hadyalar berilishi yoki berilmasligini ham hojib belgilar hamda elchilarni qabul qilish marosimidagi holatlar uchun ham u javobgar bo'lgan. Ko'p holatlarda bu ishlar bilan shug'ullangan hojib «ulug' hojib»

3 Ўша асар, –Б.338

yoki «xos hojib» («hukmdorning shaxsiy hojibi ma'nosida») deb atalgan. Boshqa hojiblar esa unga bo'ysunganlar.4

Saljuqiylar saroyida bu lavozimdagi hojib «hojibi dargoh» deb atalgan. G'aznaviylarda esa alohida elchilik noziri lavozimi mavjud bo'lib, u «rasuldor» deb ham atalgan. Somoniylarda elchilarni kim qabul qilganligi to'g'risida ma'lumot hozircha yo'q. Hojiblarning elchilarni qabul qilishdan tashqari quyidagi yana uch asosiy vazifalari bo'lgan:

1. Saroyga murojaat bilan kelgan eng yuqori martabali odamlardan tortib, hech nimasi yo'q kambag'allarni qabul qilish va kerak bo'lganda ularning hukmdor bilan uchrashuvini ta'minlash.

2.Ulug’ kunlarda (asosan hayit kunlari) uzri bo’lgan va haqsizlikka uchrab adolat istab yurgan shaxslarni o’z huzuriga chaqirish ,masalasini imkon qadar hal qilish.

3.Davlat marosimlarida qatnashish uchun kelgan amaldorlar va boshqa shaxslarni lavozim va mavqeyiga ko’ra joylashtirgan. Xitoy olimlari asarlarida Qoraxoniylar xoqonligi bilan G‘aznaviylar davlati orasidagi munosabatlarga ham ma’lum darajada e’tibor berilgan. Ushbu asarlarda bayon etilishicha, ular o‘rtasida uzoq davom etgan urushning boshlanishiga G‘aznaviylar xonligi amiri Nuh sababchi bo‘lgan. Chunki qoraxoniylar qo‘shinlari Qashqar va uning yonidagi viloyatlarda band bo‘lib turganida, ushbu amir Buxoro qal’asini qurshab olib, mahalliy aholining yordamiда uni o‘z nazorati ostiga olgan. Shuning bilan bir vaqtda amir Nuh yordamida Badaxshon va uning yaqinidagi joylarda qoraxoniylarga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tarilgan. Qoraxoniylar sulolasining bu hududdagi hukmronligi barbod bo‘lish holatiga kelib qolgan. Shunday vaziyatda Ali Nosir (Nosir Iloqxon) qoraxoniylarning Movarounnahr hududidagi qo‘shinlarini Samarqandda to‘plab, bu qal’ani saqlab qolishga uringan.

4 Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилги тарихи. –Т.: “Шарқ нашриёти”, 2001. –Б.108-109.v

Samarqand yonidagi urush bir necha oy davom etganidan keyin, amir Nuh noiloj Ali Nosir bilan sulh tuzishga majbur bo‘ldi. Ikki tomonning kelishuvi natijasida Xitan cho‘li o‘rtadagi chegara deb topildi. Cho‘lning sharqidagi joylar Qoraxoniylarga, g‘arbdagilari esa amir Nuhga qaraydigan bo‘ldi. Shunday qilib, Ali Nosir Qoraxoniylar xoqonligi uchun Movarounnahr hududidagi muhim joylarni saqlab qola oldi. 997 yilda Ali Nosir Somoniylar xoni almashayotganidan foydalanib, Buxoroga yana bir marta qo‘shin tortdi va bu qal’ani olmoqchi bo‘ldi. Lekin u yerli aholi bilan somoniylar qo‘shinlarining qarshiligiga uchrab, mag‘lub bo‘ldi. 5

998 yilda Abu Xasan Erkent atrofidagi jangda halok bo‘ldi. Xutan qo‘shinlari birato‘la Qashqar qal’asini bosib olganida, Yusuf Qodirxon Samarqandda taxtga vorislik qilib, g‘ayri musulmonlarga qarshi turish shiori ostida islom ahlini urushga safarbar qildi va Qashqarga yurish qildi. Shundan so‘ng Movarounnahrning ishlari Ali Nosirga topshirildi. Undan keyingi davrda amir Nuh ichki dushmanlar tomonidan o‘ldirildi va Somoniylar taxtiga Abdulmalik ismli bir go‘dak bola o‘tirdi. Bu fursatdan foydalanib, Ali Nosir yana Buxoroga qo‘shin yubordi va o‘z raqibini osongina yengdi. Shu yilning qurbon hayitida qoraxoniylarning qo‘shini Buxoroda qal’aga kirish marosimini o‘tkazib, Somoniylar xonligining oxirgi podshosini qo‘lga oldi va bu xonlikning 128 yillik hukmronligiga xotima berdi. Bu voqeadan so‘ng Ali Nosir Badaxshon va uning atrofidagi viloyatlarda yuz bergan qo‘zg‘olonlarni tinchitib, qoraxoniylarning Movarounnahr hududidagi hukmronligini qayta tikladi. Shundan keyingi yillarda qoraxoniylar qo‘shini Somoniylar xolifligining bayrog‘i ostida harakat qilgan kuchlar bilan kurashdi. 1003 yilda somoniylarning qolgan jangchilari saljuq turklarining yordamida Buxoro qal’asi yonida qoraxoniylar qo‘shinini mag‘lub qilib, Buxoroni yana bir bor egallab olgan edi. Lekin uzoq o‘tmay, qoraxoniylar qo‘shini Ali Nosir boshchiligida Buxoroni qaytarib oldi.

5 O‘zbekiston tarixi. T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.

Buxoro qal’asining yana qo‘ldan boy berilganligi ular uchun umumiy xotima bo‘ldi. Shundan so’ng Somoniylar tarix sahnasidan yo’q bo’ldi.[6]

Xullas, Qoraxoniylar davlati o‘z davrida Markaziy Osiyoning eng muhim siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib, qo‘shni davlatlar bilan olib borgan aloqalari orqali mintaqa tarixida muhim o‘rin egallagan. Xususan, G‘aznaviylar va Somoniylar davlatlari bilan bo‘lgan munosabatlar Qoraxoniylarning tashqi siyosati va diplomatik faoliyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Somoniylar davlati bilan dastlabki aloqalar savdo va siyosiy ta’sir doirasida rivojlangan bo‘lsa, keyinchalik Qoraxoniylar tomonidan Movarounnahr hududining egallanishi bu munosabatlarda yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi. G‘aznaviylar bilan esa asosan siyosiy raqobat va ayrim hollarda diplomatik kelishuvlar orqali aloqalar olib borilgan bo‘lib, bu ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar mintaqadagi kuchlar muvozanatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Umuman olganda, Qoraxoniylar davlatining qo‘shni davlatlar bilan aloqalari nafaqat siyosiy jarayonlarga, balki iqtisodiy va madaniy rivojlanishga ham xizmat qilgan. Bu aloqalar Buyuk Ipak yo‘li orqali savdo-sotiqning rivojlanishiga va Markaziy Osiyoda sivilizatsiyaviy taraqqiyotning kuchayishiga katta hissa qo‘shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хўжаев А., Турдиева Д. Қорахонйлар хоқонлиги тарихи: Хитой Халқ Республикаси олимлари тадқиқотларида. – Т.: “Фан зиёси”, 2021. – Б.71.
2. Асқаров А., Мақсудов Ф.А., Пидаев Ш.Р. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. VIII-қисм. –Т.: “Маънавият”, 2023. –Б.161 162
3. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилги тарихи. –Т.: “Шарқ нашриёти”, 2001. – Б.108-109.v
4. O‘zbekiston tarixi. T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.

6 Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig, Toshkent: Fan, 1971, 45-bet.